

AXBOROT KUMMUNIKATSIYALARI HAMDA MULOQOTNING INSON HAYOTIDAGI MUHIM AHAMIYATLARI.

Ilmiy rahbar: Feruza Sharipova

*TDPU xorijiy til va adabiyoti fakulteti ingliz tili
amaliy kursi kafedراسi o'qituvchisi*

Ermatova Nigina Ilhom qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU xorijiy til va adabiyoti
fakulteti 104- "a" guruh talabasi*

Annotatsiya. Muloqot inson ehtiyojlari orasida ustunlik qilib turuvchi ruhiy ko'nikmadir. Insonning muloqotga bo'lgan ehtiyoji shaxsga bo'lgan ehtiyoji bilan baravardir. Muloqot orqali biz o'zligimizni anglay olish qobiliyatini o'zimizda shakllantira boshlaymiz. Insonlarning bir-biri bilan fikr almashinishi ham muloqotning bir turi hisoblanadi. Fikr ayirboshlash jarayonida insonning g'oyaviy dunyoqarashi, axloqiy hamda estetik ko'nikmalari, kuchli irodali fazilatlari shakllanadi. Aynan jamiyat ham, insonning muloqot orqali o'zida hosil qilayotgan ko'nikmalari bilangina vujudga keladi, ya'ni ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash, jamiyatning bir-biriga e'tibori, hamdardlik, birgalikda ijod qilish shakillaishi shular jumlasidandir.

Kalit so'zlar. Fikr, muloqot, ma'lumot, televideniya, jamiyat, ommaviy axborot vositalari.

Asosiy qism. Hayotimizda oziq-ovqat manbaiga qanchalik darajada muhtojlik va ehtiyoj sezsak, insonlar o'rtasidagi muloqot ham bundan mustasno emas. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari, aytaylik mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar kabi o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilanbevosita bog'liqdir.

Kundalik turmushda axborot deganda atrof-muhitdan, ya'ni tabiatdan yoki jamiyatdan sezgi a'zolari orqali qabul qilib, anglab olinadigan har qanday ma'lumot tushuniladi. Tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo'lib, kitob hamda gazeta o'qib, televizion ko'rsatuvlarni ko'rib axborot olamiz. Aslini olganda, har bir soha vakillari axborotni o'zlaricha talqin qiladilar. Masalan, matematiklar axborotni qolgan soha vakillariga nisbatan kengroq tushundilar. Ular axborot qatoriga fikr yuritish orqali xulosa chiqarish natijasida hosil bo'lgan bilimlarni ham kiritadi. Ammo, axborotning

umumiy tomonlari ham ham mavjud bo'lib, bu ularning beshta muhim xossaga ega bo'lishidir. Ya'ni, axborotni yaratish, qabul qilish, saqlash, ishlov berish va uzatish xossalari.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqotning ham o'ziga yarasha murakkab jarayonlari mavjud. Inson esa bu jarayonlarga hayoti davomida, bosqichma-bosqich o'rganib boradi. Muloqotningpsixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Paringin shunday yozadi: “ Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a. Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b. Individlarning o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- c. Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- d. Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- e. Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- f. Shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni”.

Muloqot psixologik termin bo'lgan xotira bilan ham chambarchas bog'liq. Insonning muntazam ravishda muloqotda bo'lishi, uning xotirasiga ijobiy ta'sir qiladi, ya'ni xotira o'sishni boshlaydi. Insonlar bilan hech qanday aloqasi bolmagan shaxsning esa xotirasi susayadi. Aynan shu jarayonga misol tariqasida, Kolumbiyalik yozuvchi Gabriel Garsia Marques “Yolg'izlikning yuz yili” romanida odamlar kassallik natijasida xotirasini yo'qotib qo'ygani, biror narsaning nomini bera olmagan va uning nima ekanligini hamda nima uchun kerakligini tushunmaganligi haqida gapirib o'tgan. Qahramonlardan biri tanish narsalarning nomlarini eslab qolishda qiynalayotganini payqagach, ularga yordam sifatida anjomlarga ularning nomi yozilgan stikerlarni yopishtirib qo'yishdi. Masalan: soat, stol, eshik, devor, toshak... Fikrimcha, bu holat qahramonlarni tobora hayotdan uzilishga olib kelgan. Sababi, narsalarni nomi bilan chaqira olmaslik, ularni taniy olmaslik ma'nosini hamda maqsadini anglay olmaslik demakdir. Tilda kodlangan narsa nafaqat dunyo haqidagi ma'lumotlar, balki o'ziga xos kodga ega bo'lgan dunyoning o'zidir.

Axborot berish va uni tarqatish ham muloqot turlaridan hisoblanadi. Axborotni biz televideniya orqali, yoki bo'lmasam ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilamiz va tarqatamiz. Shuningdek axborot va ma'lumot ayirboshlash, muloqot ko'nikmalarining yuksalishida yordam beradi. Hozirgi davrga kelib Ommaviy Axborot Vositalari (OAV) jadal rivojlanmoqda. Bu texnologiyalar, xususan, ish ritmini tezlashtirishda Axborot ulashuvchi soha vakillariga yordam bo'ldmoqda. Ya'ni, axborotning uzatilish sifati hamda tezligi kun sayin o'sib bormoqda. Aytishimiz joizki, o'tgan davrga nisbatan, aholi o'rtasidagi axborot hamda media savodxonligi sezilarli darajada rivojlangan.

XXI asr-axborot asri, deya e'tirof etildi. Bunga asosiy sabab – ushbu asrga kelib, misli ko'rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo'la boshladi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam

inqilob sodir bo'ldi. 1986-yilda internetning dunyoda barqaror o'ringa ega bo'lishi, axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotidagi olamshumul voqeaga aylandi.

Axborotlashtirish jarayonida endi kishilar o'z axborotlarini so'nggi texnologiyalar yordamida, masalan, jozibador reklama yoki chat xizmatlari orqali uzatishi mumkin. Texnika-texnologiyalar rivojlangani sari, insonlarning ongi ham bunga ko'nika boshlayabdi. Endilikda aholi nafaqat axborotni uzatishi yoki qabul qilishi mumkin, balki axborotni daromad manbaiga aylantirishi ham mumkin. Aniqrog'i, axborot texnologiyalari muloqot tarzi, hamda insonlar ogini o'zgartira oluvchi qudratga ega.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda jurnalistika ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblandi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi. 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-638-sonli qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalariga so'z erkinligi berilgandan so'ng, axborot uzatuvchi hamda qabul qiluvchi o'rtasidagi to'siqlar sezilarli darajada yo'q bo'la boshladi. Axborotlarning katta qismi cheklovlarsiz ommaga taqdim qilina boshladi.

Axborot almashinuvi jarayonining xususiyatlari haqida Belarusiyalik mutaxassislar: G.Bulaskiy va Yu.Prilyuklarning bu haqda bergan tasniflari, o'zining qamrovi va teranligi bilan alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Axborot almashinuvi qanchalik muhim va o'zicha mustaqil hodisa bo'lib tuyulmasin, baribir u hamisha o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmi bo'lib qolaveradi. Buni ijtimoiy o'zaro ta'sirga nisbatan oladigan bo'lsak, har qanday axborot almashinuvi kishilar, jamoalar yoki ijtimoiy guruhlarni ma'naviy hamda intellektual takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi, xolos.
- Axborot almashinuvi mexanizmi amal qilishining eng muhim natijasi sifatida shuni keltirish mumkinki, muloqotda ishtirok etuvchilarning tuzilmaviy hamda kontent (mazmuniy) parametrlari bir-biriga mos ravishda o'zgaradi, ular o'zaro muvofiqlashib boradi.
- Axborot almashinuvining o'zaro munosabatni dolzarblashtirish xususiyati ham mavjud bo'lib, ma'lumki, munosabat o'zaro ta'sirning sharti, alomatidir. Muloqot vaqtida ishtirokchilar almashinayotgan axborot, ularning o'ziga xos ifodalanishi oqibatida individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida munosabatlar o'zgarishi ya'ni rivojlanishi yoki susayishi mumkin.
- Axborot almashinuvining indikativlik xususiyati ham bor. Ya'ni o'zaro ta'sirning, hech bo'lmaganda, bir komponentlari haqida ma'lumotlarga ega bo'linmasa, boshqalari haqida ham ishonch bilan fikr yuritish, ularni qayerda va qanday qilib izlash kerakligini inobatga olishga imkon beradi.

Bir qancha Davlat tashkilotlari bilan aholi o'rtasidagi muloqotning yo'lga qo'yilishi ham qaysidir ma'noda, Respublikamizning turli tomondan rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni yangicha fikrlarni ayirboshlash, yangiliklarni ixtiro qilishga jalb qilsa, xatoliklarni aniqlab, ularni to'g'irlash esa jamiyatni gullab-yashnashiga, o'zaro hamjihatlikga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. 2015-yil.
2. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-analiy qo'llanma. 2017-yil
3. Infocom.uz/axborot-texnologiyalari.
4. Uz.denometr.com